



## LEGAL TECH RIVOJLANISH TARIXI

Mexriddinova Shirin Ramziddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

Tel: +99893 065-14-57

e-mail: shirinmexriddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17579792>

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> November 2025

Accepted: 2<sup>nd</sup> November 2025

Published: 11<sup>th</sup> November 2025

### KEYWORDS

*Legal Tech, huquqiy texnologiyalar, sun'iy intellekt, blokcheyn, smart kontraktlar, bulutli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, modernizatsiya, ma'lumotlar bazasi, onlayn yuridik resurslar, prediktiv kodlash, huquqiy ong.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Legal Tech, ya'ni huquqiy texnologiyalar rivojlanishining tarixiy va zamonaviy jihatlarini tahlil qilinadi. Unda Legal Tech tushunchasi, yuridik xizmatlarni modernizatsiya qilishdagi roli, inson omilini kamaytirish va jarayonlarni tezlashtirish kabi asosiy maqsadlari yoritiladi. Rivojlanish tarixi uch davrga bo'linadi: birinchi davr (1970-1980-yillar) – elektron yozuv mashinalari va huquqiy ma'lumotlar bazalari; ikkinchi davr (1990-2000-yillar) – internet, onlayn resurslar va yuridik faoliyatni boshqarish dasturlari; uchinchi davr (2010-yildan hozirgi kungacha) – sun'iy intellekt, blokcheyn, smart kontraktlar va bulutli texnologiyalar. Shuningdek, Germaniya va Estoniya tajribalari tahlil qilinib, O'zbekistonda Legal Techni rivojlantirish, xorij tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.*

### Kirish

Britaniyalik yozuvchi va notiq, professor Richard Sasskind o'zining “Bo'lajak yuristlar: kelajagingizga kirish” nomli kitobida ta'riflaganidek: “Legal tech – yuristlar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirgan, huquqiy xizmatlarni ko'rsatish usullarini modernizatsiya qilgan va yuridik kasb evolutsiyasining muhim bosqichi bo'lgan texnologik inqilob”[1]. Darhaqiqat, bugungi kunda Legal technology yoki qisqacha legal tech, ya'ni huquqiy texnologiya – huquqiy xizmatlarni ko'rsatish va huquqiy faoliyatni amalga oshirishda qo'llanadigan zamonaviy texnologik yechimlar va dasturiy ta'minotlar majmui sifatida huquqshunoslik sohasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Aslida, yuridik kasb asrlar davomida an'anaviy kasblardan biri bo'lib kelgan va konservativ xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turgan. Lekin oxirgi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yuridik xizmatlar ko'rsatish modelini tubdan o'zgartirdi. Xususan, O'zbekistonda ham huquqiy soha modernizatsiyasi amalga oshirilmoqda. “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida yuridik sohani raqamlashtirish bo'yicha muhim qadamlar bosilmoqda. E-sud tizimlarining rivojlanishi va milliy qonunchilik bazalarining yaratilishi ham mamlakatimizdagi Legal tech rivojlanishining namunalari sifatida ko'rilmoqda [2]. Zero, Legal techning asosiy maqsadi inson omilini kamaytirish, xatoliklarni minimallashtirish va huquqiy jarayonlarni tezlashtirishdir.

## Material va metodlar

Maqolada tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli va tarixiy usullar kabi atrofdagi huquqiy borliqni tushunishning umumiy ilmiy usullari, shuningdek, qiyosiy-huquqiy, rasmiy-huquqiy hamda xususiy-huquqiy usullar qo'llangan.

## Tadqiqot natijalari

Har bir sohaning, fanning, predmetning tarixi bo'lganidek, Legal techni ham o'z rivojlanish tarixi mavjud va uning tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu hozirgi kundagi legal techni yaxshi anglashga, undan samarali foydalanishga va yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etishga katta yordam beradi. Zero, Britaniyalik mashhur davlat arbobi Uinston Cherrill "Tarixni o'rganing, jamiyatdagi barcha muammolarning yechimi tarixda mavjud" deya bejiz ta'kidlamagan.

Soha mutaxasislari legal tech rivojlanish tarixini turlicha, xususan, umumiy yoki davrlar, qismlarga bo'lib o'rganishadi. Mening fikrimcha ham umumiy o'rgangandan ko'ra, davrlarga bo'lib o'rganish samaraliroq bo'ladi. Zero, murakkab fan yoki sohani qismlarga bo'lib o'rganish uni murakkablik darajasini pasaytiradi, uni chuqurroq va osonroq o'rganishga, anglashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra legal tech rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga bo'lib ko'rib chiqamiz:

Birinchi davr (1970-1980-yillar);

Ikkinchi davr (1990-2000-yillar);

Uchinchi davr (2010-yildan hozirgi kungacha).

1970-1980-yillar: Legal tech birinchi davri

Ko'plab adabiyotlarda elektron yozuv mashinkalarining paydo bo'lishi yuridik hujjatlarni tayyorlash jarayonini sezilarli darajada osonlashtirgani, IBMning Memory Typewriter va Magnetic Tape Selectric Typewriter kabi qurilmalari huquqshunoslarga hujjatlarni xotiraga saqlash va qayta tahrirlash imkoniyatini berishini legal techning birinchi davri kirish qismi deb keltirishadi. Garchi advokatlar bu mashinalardan kamdan-kam foydalanishgan bo'lsa-da, ta'sir sezilarli bo'lgan - amaliyot sur'ati sezilarli darajada tezlashgan. Ammo, ayrim chet el adabiyot va maqolalarida, xususan, "Back to the future: A history of legal technology" maqolasida: "Huquq sohasidagi kompyuter inqilobining boshlanishi 1973-yilda, Lexis advokatlarga kitoblarni mashaqqatli o'rganishdan ko'ra, sud amaliyotini onlayn izlash imkonini berish uchun qizil "UBIQ" terminalini ixtiro qilgandan keyin boshlandi" [3] deya kelib chiqishi jihatdan birin-ketin bo'lgan legal techning dastlabki davri keltiriladi. Darhaqiqat, dastlabki huquqiy ma'lumotlar bazasi yaratilishi ham shu davrga to'g'ri kelgan. Ya'ni yuqorida aytilganidek 1973-yilda Lexis (hozirgi LexisNexis) tizimi sudlov qarorlari va qonunchilik hujjatlarini elektron shaklda saqlash va qidirish imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, 1979-yilda Westlaw tizimi ishga tushirildi. Bu tizim orqali huquqshunoslari endi huquqiy ma'lumotlarga istalgan joyda va istalgan vaqtda kirish imkoniga ega. West Group esa bugun "Westlaw Anywhere"ni e'lon qildi. Huquqiy tadqiqot texnologiyasidagi eng so'nggi konsept bo'lgan Westlaw Anywhere Westlawga tez, qulay va simsiz kirish imkonini taqdim etadi [4].

Bu ikki tizim yuridik axborot qidiruv sohasida inqilob yasadi va legal techning birinchi davri rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Qolaversa, yana ikki dastur ham bu davrda shakllandi. Bular Word processing va WordPerfect dasturlaridir. Word processing dasturining rivojlanishi yuristlarga hujjatlarni yanada samaraliroq tayyorlash imkoniyatini berdi. WordPerfect dasturi esa 1980-yillarda yuridik firmalarda eng ko'p qo'llaniladigan dasturiy ta'minot bo'lib qoldi.

Shuningdek, bu davr yakunida, ya'ni 1980-yillar shaxsiy kompyuterlar advokatlik idoralariga kirib bordi. Ulardan yuridik amaliyotda foydalanish sezilarli darajada o'sdi, jumladan hujjatlar almashish va aloqada. IBM shaxsiy kompyuteri taqdim etilib, IBM PC bozordagi boshqalarga qaraganda ancha tez va xotira hajmi taxminan 10 baravar ko'p bo'lgan, dunyodagi eng mashhur shaxsiy kompyuter va sanoat standarti sifatida tarixda qoldi [5].

1990-2000-yillar: Legal Techning ikkinchi davri

Haqiqiy Legal tech inqilobi esa 2000-yillarda boshlandi, chunki o'sha paytda mashinaviy o'rganish (machine learning) texnologiyalari keng ommalashdi. 2000-yillarning o'rtalarida AQSh yuristlari prediktiv kodlash (predictive coding) texnologiyasidan foydalanishni boshladilar — u minglab hujjatlarni tahlil qilib, ish uchun eng muhimlarini ajratib bera olardi. 2010-yilgacha esa Legal Tech yirik firmalar doirasidan chiqib, keng jamoatchilikka yo'naldi. LegalZoom va Rocket Lawyer kabi kompaniyalar orqali odamlar onlayn tarzda oddiy yuridik xizmatlardan — masalan, vasiyatnoma tuzish yoki biznesni ro'yxatdan o'tkazish kabilardan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Bu jarayon sababli texnologiyalar nafaqat yuristlar, balki oddiy fuqarolar foydasiga ishlay boshladi [6].

Bundan tashqari, Internet va elektron pochta keng tarqalishi yuristlar va mijozlar o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Elektron pochta orqali hujjatlarni almashish, maslahatlar berish va muzokaralar olib borish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu bilan birga, Findlaw, Cornell LII kabi online resurslar bepul huquqiy ma'lumotlar bazalarini taqdim eta boshladi. Eng ahamiyatlisi esa yuridik faoliyatni boshqarish dasturlarining rivojlanishi yuridik firmalarga o'z faoliyatini samaraliroq tashkil etish imkonini bergani bo'ldi. Xususan, Time Matters, PCLaw kabi dasturlar vaqtni hisobga olish, billing va loyihalarni boshqarish funksiyalarini taqdim etdi.

Qisqa qilib aytganda bu davrda Capstone Practice Systems prezidenti Mark Lauritsen ta'kidlaganidek: "Internet yuridik xizmatlar ko'rsatish modelini tubdan o'zgartirdi" [7]. Ya'ni bu davr internet texnologiyalarining yuridik sohaga kirib kelishi bilan xarakterlandi.

2010-yildan hozirgi kungacha: Legal techning uchinchi davri

Bu davr bevosita sun'iy intellekt va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarning sohaga joriy etilishi bilan bog'liq. Aslida, sun'iy intellekt (AI) uchun yagona ta'rif mavjud bo'lmasa-da, bu atama odatda inson aqlini taqlid qila oladigan kompyuter texnologiyalarini anglatadi. Bunday tizimlar quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish, qonuniyatlarni aniqlash va kelajakdagi xatti-harakatlarni bashorat qilish;
- Ma'lumotlardan o'rganish va vaqt o'tishi bilan ma'lum vazifalarni yanada samarali bajarishga moslashish [8].

Qolaversa, sun'iy intellekt yuridik sohada raqobat muhitini qayta shakllantira boshlamoqda, ayniqsa ilgari texnologiyalarni joriy etishda orqada qolgan o'rta bozor (mid-market) yuridik firmalari orasida. Ilgari ular elektron jadvallar, matn muharrirlari va bir-biriga ulanmagan ishlarni boshqarish tizimlariga tayanib kelgan bo'lsalar, hozirda ish jarayonlarini standartlashtirish, ko'rib chiqilayotgan ishlar hajmini oshirish va mijozlarning tezlik hamda samaradorlik borasidagi ortib borayotgan talablarini qondirish zarurati bosimi ostida qolmoqdalar [9].

Blokcheyn va smart shartnomalarning paydo bo'lishi esa yuridik bitimlarni avtomatlashtirish imkonini berdi. Blokcheyn texnologiyasi, xususan, Bitcoin kabi kriptovalyutalar tranzaksiyalarini qayd etishda qo'llanilishi bilan keng tanilgan. Bundan tashqari, blokcheyndan aqlli shartnomalar (smart contracts), xalqaro to'lovlar va pul o'tkazmalari,

qimmatli qog'ozlar savdosi hamda ta'minot zanjirini boshqarish kabi ko'plab boshqa sohalarida foydalanish masalasi ham ko'rib chiqilmoqda [10]. Ethereum platformasi esa aynan smart kontraktlar yaratish uchun keng qo'llana boshlandi. Shu bilan birga bulutli texnologiyalarning rivojlanishi ham yuridik ma'lumotlarni saqlash va ularga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bundan tashqari, Clio, Rocket Matter kabi cloud-based yuridik boshqaruv tizimlari masofaviy ishlash imkoniyatlarini taqdim etdi.

Bundan tashqari, uchinchi davrda CLM (Contract Lifecycle Management), yuridik vazifalarni boshqarish va elektron imzo kabi huquqiy texnologiya vositalari vaqt o'tishi bilan yakuniy jarayonlarni boshqaradigan mustahkam yechimga aylandi [11].

Uchta davr ham o'zining innovatsion yechimlarini olib keldi. Qisqacha qilib aytganda, birinchi davrda asosiy avtomatlashtirish va elektron ma'lumotlar bazalari, ikkinchi davrda internet va online resurslar, uchinchi davrda sun'iy intellekt, blokcheyn va cloud texnologiyalar ravnaq topdi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Umuman olganda Legal tech rivojlanishi dunyoning deyarli barcha davlatlarida jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Masalan, Germaniya va Estoniya davlatlariga e'tiborimizni qaratsak, bu davlatlarda ham legal techning davlat va huquq uchun bir qancha afzalliklar yaratganini guvohi bo'lamiz. Xususan, "Navigating Jurisdictional Boundaries: Traditional Lawyers vs. Legal Tech Firms in the German Legal Services Market" nomli maqolada ham buni ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolaga ko'ra, so'nggi yillarda yuridik texnologiya kompaniyalari Germaniya huquqiy landshaftining muhim qismiga aylandi. Dastlab, bu firmalar o'z sa'y-harakatlarini ijara huquqi va havo yo'lovchilari huquqlari kabi huquqning ixtisoslashgan sohalariga qaratdi. Biroq, yuridik texnologiya firmalari tobora ko'proq ushbu chegaralardan oshib, keng doiradagi huquqiy sohalar va ilovalarga kirishmoqda [12]. Shuningdek, ushbu maqolada Legal tech firmalari an'anaviy advokatlar xizmatlariga tahdid solmasligi, lekin yuridik huquqiy firmalarning an'anaviy advokatlar o'rganishi kerak bo'lgan bir qancha jihatlari keltiriladi.

Amaliy misol sifatida esa Flightright kompaniyasini keltirish mumkin. Germaniyadagi eng mashhur yuridik texnologiya kompaniyalaridan biri — Flightright hisoblanadi. Flightright Yevropa Ittifoqining "Havo yo'lovchilarining huquqlari to'g'risidagi reglament"i asosida yo'lovchilarning huquqlarini himoya qiladi. Mazkur reglamentga ko'ra, aviakompaniyalar reys bekor qilinganda, parvozga ruxsat berilmaganda yoki uzoq kechikishlar sodir bo'lganda yo'lovchilarga kompensatsiya to'lashlari shart. Flightrightning ma'lumotlariga ko'ra, u so'nggi 10 yil ichida butun Yevropa bo'ylab 6 milliondan ortiq yo'lovchiga yordam bergan va 430 million yevro miqdorida kompensatsiya to'lashni ta'minlagan [13].

Estoniya davlatida esa legal tech nafaqat huquq sohasida, balki iqtisodiyotda ham boshqa davlatlarga o'rnak, namuna bo'lib kelmoqda. Bu haqda "Soliq tizimini raqamlashtirish. Estoniya tajribasi va O'zbekiston yo'li" nomli maqoladan batafsil bilishimiz mumkin. Maqolaga ko'ra, soliq tizimini raqamlashtirishni ilk bo'lib boshlagan davlatlardan biri sifatida, Estoniya har bir islohotni puxta o'ylab, bosqichma-bosqich, barqaror tarzda olib bordi. 1994-yilda elektron imzo qonunini qabul qilish orqali u kelajak uchun zamin hozirladi. Bu ishonchni, qonun ustuvorligini, davlat va fuqaro o'rtasidagi raqamli ishonch rishtasini tiklash yo'lidagi ilk qadamlardan biri bo'ldi. 2000-yilga kelib Estoniya dunyoni hayratga soladigan yutuqqa erishdi, ya'ni X-Road platformasi ishga tushdi. Bu platforma orqali barcha davlat idoralari yagona axborot maydonida faoliyat ko'rsata boshladi. Soliq to'lovchining daromadi, xarajatlari, aktivlari, hattoki avtomobili ham real vaqt rejimida soliq idorasi ko'z o'ngida turadigan holatga keldi. Bunday shaffoflik avvalo byudjetga bo'lgan ishonchni oshirdi, korrupsiyaning

ildiziga bolta urdi. Fuqarolar endi soliq deklaratsiyasini 3 daqiqada to'ldira oladigan darajaga yetdi. Qog'ozsiz, navbatsiz, ortiqcha suhbatlarsiz, jimgina tizim orqali hisob-kitob bu davlat ishonchining ramzidir. Estoniyada bugun 99% soliq deklaratsiyalari avtomatik ravishda to'ldiriladi. Tizim sun'iy intellekt orqali xatoliklarni o'zi aniqlaydi, ortiqcha soliq to'lovlari qaytariladi. Hatto kimningdir soliq yuklamasi oshib ketgan bo'lsa, tizim uni ogohlantiradi. Bu nafaqat texnologik yutuq, balki davlat va fuqaroning o'zaro sadoqatli do'stligi, aqlli boshqaruvning real timsolidir. O'zbekiston soliq tizimida ham AI (sun'iy intellekt) asosida ishlovchi elementlar paydo bo'la boshladi. Tizim ba'zi xatolarni o'zi aniqlaydigan bo'ldi. Har bir soliq to'lovchining elektron profili yaratilgan. Ammo hali ko'p ishlar oldinda. Eng katta farq bu ishonch darajasida. Estoniyada fuqarolar davlatga, tizimga to'liq ishonsa, O'zbekistonda hali bu madaniyat shakllanib bormoqda [14]. Bu tizimni rivojlantirish uchun esa nafaqat Legal Techni, balki fuqarolarning huquqiy ongini ham yuksaltirish kerak.

### Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, legal techning rivojlanish tarixi har bir davlatni huquq tizimini raqamlashtirish va rivojlantirish jihatidan muhim rol o'ynaydi. Buning uchun nafaqat, legal tech rivojlanish tarixining uchta davrini yoki qismlarini, balki xorij tajribasini, xususan ushbu soha rivojlangan yoki jadal rivojlanayotgan davlatlarning tajribasini chuqur o'rganish kerak. Shuningdek, o'rganish bilangina cheklanmasdan, milliy qonunchiligimizga tatbiq qilgan holda O'zbekistonda ham ushbu sohani yanada rivojlantirish lozim.

### REFERENCES:

1. Richard Susskind. "Tomorrow's Lawyers: An Introduction to your future" (2nd edition), Oxford University Press, 2023
2. N.X.Inoyatov "Zamonaviy yurist uchun legal tech vositalari" o'quv qo'llanma, 2025, 5 p.
3. Ron Friedmann "Back to the future: A history of legal technology" , dekabr 2004. <https://prismlegal.com/back-to-the-future-a-history-of-legal-technology/>
4. "Westlaw Anywhere; Take Westlaw With You", PR Newswire, September 21, 2000, Thursday. LexisNexis
5. "Evolution of Legal Tech: Past, Present & Future of Data Management" <https://www.lmiweb.com/blog/evolution-legal-technology-past-present-and-future-data-management>
6. Temurbek Po'latov, <https://t.me/legaltechrusB> , leksiya 1
7. N.X.Inoyatov "Zamonaviy yurist uchun legal tech vositalari" o'quv qo'llanma , 2025 , 8 p.
8. "Using Technology to Increase Small Law Firm Efficiency by Practical Law" , 2025, Westlaw.
9. " BTR: AI Integration in Legal Technology - Mid-Market Law Firms Move from Tools to Platforms" , MENAFN - Press , Friday, September 26, 2025. LexisNexis. <https://menafn.com/1110116198/BTR-AI-Integration-In-Legal-Tech-Mid-Market-Law-Firms-Shift-From-Tools-To-Platforms>
10. "Blockchain and Data Protection" , July 15, 2019 HKCAW, Westlaw. <https://www.hk-lawyer.org/content/blockchain-and-data-protection>
11. "A short history of Legal Tech in the era of digital transformation" <https://www.storyshaper.io/en/post/petite-histoire-legaltech-transformation-digitale>
12. "Navigating Jurisdictional Boundaries: Traditional Lawyers vs. Legal Tech Firms in the German Legal Services Market". P Günther, J Behr, L Thies - Zeitschrift für Rechtssoziologie, 2025 - degruyterbrill.com
13. Giesela Ruhl "Legal Tech Companies and Access to Justice in Germany", Cambridge University Press, 2025.

<https://resolve.cambridge.org/core/books/rethinking-the-lawyers-monopoly/legal-tech-companies-and-access-to-justice-in-germany/E0CFDB931436E79564BEA688AAA0EAA1>

14. Bo'ltakov S., Naimjonov S. SOLIQ TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH BOSQICHLARI. ESTONIYA TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON YO'LI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15558828> //Science technology&Digital finance. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 43-46



INNOVATIVE  
ACADEMY